

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING MA'NAVYI-AXLOQIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Yuldashev Dilshodjon Ma'murovich.,

Qo'qon DPI, Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

Toshpo'latova F.

MXvaAS fakulteti, Musiqa yo'nalishi birinchi bosqich

talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish; vatanparvarlik, rostgo'ylik, insof, adolat va kamolotga erishishidagi qator omillar, oila, muassasa, muhit, jamoada shakllantirish va tamoyilari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, ma'naviyat, axloq, ma'naviy –axloqiy tarbiya, shakllantirish omillari, tamoillari.

Ma'naviyatni yuksaltirish borasidagi davlat g'amxo'rliqi ma'naviy-axloqiy tarbiyaga e'tiborning yuksak cho'qqisidir. Chunki ma'naviyatsiz tarbiyani, tarbiyasiz ma'naviyatni zuhur etish qiyin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ularning xalq insonparvarligi chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo'lishlariga e'tibor berish lozim. Bunda ma'naviyatdan "...oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladagina iborat emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, xalollik degani"dir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - bu millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne'matlarni shaxs tomonidan o'zlashtirilib, undan foydalangan holda o'z axloqini barkamollashtirishga erisha olganlik darajasini ko'rsatuvchi mezondir. Qadimdan o'zbek xalqi o'z bolalarining kamolotga erishishiga juda katta e'tibor bilan qaraganlar.

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy meros o'tmishning yutug'i. Uni to'la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. O'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilimaslik yoki mensimaslik manqurtlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqloli uchun fojeadir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlol, vatanimizning ulug' kelajagi uchun mehnat qilishga o'zida kuch va qudrat topa oladi.

Shaxs ma'naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Shu boisdan, madaniy merosdan bugungi kun qadriyatlaridan to'g'ri foydalana olish, tarixdan to'g'ri xulosa chiqara bilish, o'z tarixiga va bugungi ahvoriga, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga, diniga va axloqiga, mavjud amaliyotiga, turmush tarziga qaray olish – mustaqillikni mustahkamlashning muhim ma'naviy asosidir. Mana shu ma'naviy asos har bir ota-ona, oilaga kirib borsagina oila ma'naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, bo'lsa esa oiladagi har bir yoshni jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarni noto'g'ri talqin etishga olib keladi.

O'zbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazish kelajagi buyuk O'zbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyanob qilib tarbiyalaydi. Ma'naviyat ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta'sirida shakllanadi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni bolaning yoshligidan boshlab berib borish zarurligini barcha mutafakkir olimlarimiz ta'kidlab kelishgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berib, „Tadbir al-manozil“ asarining maxsus bo'limini anashu masalaga bag'ishlagan. Kitobning „Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash“ bo'limida bolani maktabga jalb qilish haqida to'xtalgan. Uning ta'kidlashicha maktabga barcha kishilarning bolalari jalb etilishi va hamma bolalar birga o'qitilishi hamda tarbiyalanishi lozim. U bolani uy sharoitida yakka tartibda o'qitishga qarshi bo'lgan, bolani maktabda jamoa bilan o'qitishning foydasini quyidagicha ifodalagan:

-Agar bolalar birga o'qisa zerikmaydi, ularda fanni egallashga, qiziqish yuzaga keladi, bir – biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

-O'zaro suhbatda bolalar bir-birlariga kitobdan o'qib olganlarini, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

-Bolalar birga to'planganlarida bir-birlarini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-birlariga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni o'rganadilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim omil – ular qalbida vatanparvarlik, el-yurt, ota-ona oldida

ma'suliyat, halollik, poklik, iymon-e'tiqod va iroda tushunchalarini mustahkamlash ekanini hamisha yodda tutishini taqozo etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllanishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondoshuvida namoyon bo'ladi;

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy darajasi u mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy kamoloti ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

- Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosra ega ekanligi. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning yagona g'oya O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, milliy mafkura g'oyalarini o'quvchilar o'rtasida targ'ib etishda ifodalanadi.

- Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy bilimlar berish, ularda ijtimoiy-amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarini xrsil qilish, ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya ishining tizimlilikini ta'minlash, bir maromda doimiy tashkil etilishiga erishishida namoyon bo'ladi.

-Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi. O'quvchilar o'rtasida tashkil etilayotgan ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishdan ko'zlangan yagona maqsad ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar, ma'naviy-axloqiy madaniyatni qaror toptirishdan iboratdir. Mazkur tamoyil ana shu g'oyani yoritishga xizmat qiladi.

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv. Ushbu tamoyil kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik, darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, ma'naviy axloqiy tarbiyani olib borishda oila, ta'lim muassasalari; mahalla, ijtimoiy tashkilotlar, davlat va jamiyat imkoniyatlaridan birdek samarali foydalanishni nazarda tutadi.

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar ularda ilgari surilgan g'oyalarga tayanib ish ko'rish. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda millin, tarixiy tajriba, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning g'oyalari ta'sir kuchiga tayanib ish ko'rishni o'zida ifoda etadi.

-Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi. Ushbu tamoyil kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustuvorligi (o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini yuqori qo'yish, huquq va burchlarini hurmat qilish) ni ifodalaydi.

- Ma'naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtirish, bu boradagi faoliyatni tashkil etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'naviy-axloqiy bilimlarning amaliyotdagi ijrosini ta'minlash asosida bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirib borishni anglatadi.

Ushbu tamoyillarni to'g'ri amalga oshirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongiga yaxshilik ezgulik, shirinso'zlik kabi tushunchalarni singdirib borish, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish imkoniyatini beradi.

